

O'QUVCHILARDA DEVIANT XULQ-ATVORNING SHAKLLANISHI DOLZARB MUAMMO SIFATIDA

Abdualiyeva Barno Yusufovna

Sirdaryo viloyati Shirin shahar Olim Xòjayev nomidagi 1-sonli umumiy órta ta'lim maktabining amaliyotchi psixologi

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada voyaga yetmaganlar orasida yuzaga keladigan deviant hulqatvor, uning ko'rinishlari, olimlar fikrlari, qarashlari va bu borada olib borilgan izlanishlari haqida ma'lumotlar berilgan. Oilada shaxslararo munosabatlar, oilada yuzaga keladigan nizolar va ularning farzandlar tarbiyasiga, xulq-atvori va ruhiyatiga ta'siri yoritilgan.

Kalit so'zlar: ota-onalar deviant hulq-atvor, OAV g'amxo'rlik, tarbiyaviy funktsiya, oilaviy tarbiya, o'smirlar, oilaviy muammolar, nizolar, huquqbuzarlik, affektiv soha, disfunktsional, emotsional holat, agressiv xulq-atvor, oilaviy munosabatlar.

KIRISH

Insonning xulq-atvori o'zgaruvchan va rang-barang bo'lib, uning individual xususiyatlari, o'ziga xos «uslublari» ning mavjudligi hammaga ayon. Biroq bu xulq-atvorning xilma-xilligi uning cheksiz degani emas, zero insonlarning o'zaro muloqoti, o'zaro munosabati, ularni turli ijtimoiy guruhlarga birikuvi, yashashi uchun iliq psixologik muhitning saqlanishi zaruratdir. "Har bir shaxs o'z yosh davriga xos muayyan ijtimoiy munosabatlar egasi hamda unga jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan ko'plab iqtisodiy, siyosiy, huquqiy, axloqiy ta'sirlarning obyektini hisoblanadi". Shaxsning xarakteri, temperamenti, qobiliyati ruhiy jarayonlarni boshdan kechirganda, mehnat faoliyatida, turmushda o'zini namoyon etadi. Demak, psixik jarayonlar, psixik holatlar va psixik xususiyatlarning o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik hamda aloqadorlik shaxsning psixologik tuzilishini tashkil etadi.

Deviant xulqli farzandi bor oila a'zolarining o'zaro munosabatlarida rad etilganlik va befarqlik kabilar ko'proq ko'zga tashlanadi. Tadqiqotlarining ko'rsatishicha, ota-onalar orasidagi doimiy nizolar, urush-janjallar, o'zaro xusumat, shuningdek, mustahkam bo'lmagan nikoh deviant xulqida yoshligidanoq o'z asoratlarini ko'rsatadi. Bunday ota-onalar o'z farzandlarining ijtimoiy tarbiyasiga, ularga nisbatan kam e'tibor beradilar. Ayni vaqtda farzandlar tomonidan ham shunday munosabat kuzatiladi. Ushbu holatlar sof psixologik nuqtai nazaridan etibor berilsa xar qanday xuquqbuzarlik, xar qanday jinoiy faoliyatning alohida turi sifatida talqin qilinadi. Bunda inson ijtimoiy faolligini belgilovchi va o'ziga hos qonunbuzarlik shaklida

ifodalovchi uning psixik holati, shaxsning motivatsion jabxasi, individual psixologik sifatlari, psixologik xususiyatlari, sub'yektning ijtimoiy qadriyatlarga munosabatlarida o'z ifodasini topadi. voyaga yetmaganlar xos deviant xulq-atvor va ularni ijtimoiy moslasha olmaslik (dezadaptatsiya) muammosi kuchayib borish xususiyatiga ega ekanligi bois ham juda dolzarbdir. Bunday o'smirlarning umum qabul qilingan ijtimoiy va ma'naviy-axloqiy me'yorlarni tan olmasligi, ta'lim-tarbiya bilan shug'ullanuvchi oila, maktab, mahalla va boshqa ijtimoiy institutlar oldiga muhim vazifalarni yuklaydi. Xulq-atvorida buzilishlari bo'lgan o'smirlarning psixik rivojlanishida ham o'zgarishlar ro'y berishi sir emas. Shu bois ularning xulq-atvorida buzilishni keltirib chiqaruvchi sabablarni tadqiq qilish, oilaning farzand tarbiyasidagi o'rnini o'rganish alohida yondashuvni talab etadi.

Tarbiyasi «qiyin»lik va u bilan bog'liq deviant xulqining vujudga kelish jarayoni: madaniy (M.Mid, E.Fromm), iqtisodiy (G.Kayzer, B.Xolist, G.Shnayder), ijtimoiy (S.D.Arzumanyan, N.P. Dubinin, V.N.Kudryavtsev), salomatlik (M.I.Buyanov, P.B.Gannushkin, A.I. Zaharov, I.I. Kovalev, Z.F. Kamaletdinova, A.E. Lichko), ijtimoiy-psixologik (M.A. Alemaskin, S.A. Belicheva, L.I.Bojovich, G.G.Bochkareva, A.I.Dolgova, YA.L.Kolominskiy, V.M.Karimova, M.N.Ovchinnikova, E.G'.G'oziyev), pedagogik (A.S.Belkin, N.N.Vertsinskaya, L.S.Vigotskiy) kabi keng qamrovli ta'sirlar oqibati ekanligi aniqlangan. Shuningdek, N.Komilovani "Xulqi og'ishgan bolalar psixologiyasi" nomli o'quv qo'llanmasida bolalarning og'ishgan xulqi psixologiyasining dolzarb masalalari: ushbu ko'rinishning fenomenologiyasi, turlarning tasnifi, determinasiya va ishlash mexanizmlari, ijtimoiy-psixologik prevensiya va intervensiyaning usullari ko'rib chiqilgan.

Jamiyatimiz taraqqiyoti munosabati bilan oila, uning barcha hayotiy bosqichlari jiddiy o'zgarishlarga uchramoqda. Millatning tarixiy, milliy va regional xususiyatlarini hisobga olgan holda o'zbek oilalari taraqqiyotini umumiy va xususiy taraqqiyotlar asosida oilaviy tarbiyani maqsadga muvofiq yaxshilash lozim.

Oila jamiyatning asosiy instituti hisoblanib, u tarbiyaning boshlang'ich o'chog'i sifatida shaxsning shakllanishida muhim rol o'ynaydi. Oilaning tarbiyaviy ahamiyatiga molik vazifasini ta'minlanishida undagi ijtimoiy psixologik muhit, shaxslararo munosabatlar belgilaydi. Agar rollar, o'rinlar va o'zaro hamjihatlik inqirozga yuz tutgan holatlarda oiladagi psixologik muhitni tasavvur qilishni o'zi murakkabdir. Oilada shaxslararo munosabatlarning o'ziga xos tomonlari uning barqarorligini ta'minlashga va unda unib o'sayotgan bolalarning xar tamonlama yetuk inson bo'lishiga xizmat qiladi

Oilaviy nizolarning bolaga salbiy ta'siridan qanday qochish kerak? Ushbu masala ota-onalarning xatti-harakatlarini ko'rib chiqish, janjallarning sababini aniqlash va undan xalos bo'lishni o'z ichiga oladi. Buni o'zlari va ularning munosabatlari ustida

ishlashni xohlaydigan, shuningdek, farzandining oilada noqulay sharoitda yashashini istamaydigan ota-onalar tomonidan ko‘proq qo‘llaniladi. Bunday maqsadni qo‘ygan holda, ota-onalar bolani yuqorida tavsiflangan barcha muammolar va tashvishlardan xalos qilishlari va shu bilan birga oilani va ularning o‘zaro munosabatlarini mustahkamlashlari mumkin. Agar nizo muqarrar bo‘lsa, unda ota-onalar vaziyat bolaning ishtirokisiz tartibga solishga harakat qilishlari kerak. Har qanday sharoitda bir-biringizga tanqid va ayblovlar bilan hujum qilmaslik darkor.

Bunday holda, ziddiyat faqat o‘sadi. Bir-birlariga tahdid qilish - bu umuman nizolar uchun tabu. Shuni unutmangki, bolalar ishonuvchandir va ular sizning barcha so‘zlaringizni chinakam haqiqat deb qabul qilishadi va ularning hayollari sizning tahdidlaringizni dahshatli nisbatlarga bo‘yashga qodir, bu esa kichkina odam uchun stressni keltirib chiqaradi. Bola bilan bir-biringizga tahdid qilish, yoki bolaga tahdid qilish uning mo‘rt psixikasini buzishdir. Agar oilada ota-onalik mahorati yuksak, vazifasi to‘liq bajarilsa, unda oilada nizolar bo‘lmaydi va albatta, ularning bolaga ham salbiy oqibatlarini oldi olinadi.

OAVda, ta‘lim muassasalarida yoshlarni ibratli xulqqa chorlaydigan ma‘naviy ma‘rifiy tadbirlarni ko‘paytirish, ularda axborot iste‘moli madaniyatini shakllantirish orqali yot g‘oyalarning ta‘siriga berilib ketmaslik choralari ko‘rish lozim. Bunda ijtimoiy nazorat mexanizmini, shuningdek, shaxsning emotsional-irodaviy sohalarini rivojlantiruvchi, ularni mantiqiy fikrlashga undaydigan darsda qo‘llaniluvchi samarali o‘quv-metodlaridan foydalanish lozim.

Yoshlar orasida, shuningdek, xulqi og‘ishgan shaxslar, tarbiyasi qiyin o‘smirlar bilan ishlashda ijtimoiy-psixologik treninglarni ko‘proq o‘tkazish, ularda xarakter xislatlari va jamoa bilan ishlash ko‘nikmalarini shakllantirish orqali xulq og‘ishini oldini olish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Abduvakilovna, K. U., & Xusanovna, R. X. (2022). O‘SMIRLARDA DEVIANT XULQ-ATVOR SHAKLLANISHIGA OILAVIY NIZOLARNING TA‘SIRI. *Journal of new century innovations*, 19(2), 91-94.
2. Abduvakilovna, K. U., & Baxriddin o‘g‘li, X. J. (2022). O‘SMIRLARDA SALBIY XULQ-ATVOR NAMOYON BO‘LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *Journal of new century innovations*, 19(2), 87-90.
3. Abduvakilovna, K. U. (2022). OLIY O‘QUV YURTI TALABALARIDA KASBIY VA AXLOQIY SIFATLARI SHAKLLANISHINING PEDAGOGIKPSIXOLOGIK TAJRIBA ISHLARI NATIJALARI. *Journal of new century innovations*, 19(2), 95-98.
4. PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALAR VA PEDAGOGIK MAHORAT. *Журнал Педагогика и психологии в современном образовании*, 3(1).

5. Abduvakilovna, K. U. (2022). O‘SMIRLIK DAVRINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI VA DEVIANT XULQ-ATVOR MUAMMOSI. *O‘ZBEKISTONDA FANLARARO INNOVATSIYALAR VA ILMIY TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(14), 763-767.
6. ABDUVAKILOVNA, K. U. (2023, February). KICHIK MAKTAB YOSHIDA
7. BOLALAR DIQQATINING O ‘ZIGA XOS HUSUSIYATLARI. In " *TARAQқиЁТ ТАДҚИҚОТЛАРИ*" кўп тармоқли конференция тўплами. <https://imfaktor.uz/>.
8. Karakulova, U., Berdiyorova, S., & Rejebbayeva, A. (2023). O‘SMIRLIK DAVRIDA NOMOYON BO‘LADIGAN DEVIANT XULQ-ATVOR. Журнал Педагогика и психологии в современном образовании, 3(2).